



"Every Student Succeeds Act" (ESSA) (Har bir o'quvcnining yaxshi o'q'ishi to'g'risida"gi qonun) haqida ko'proq ma'lumotni NYSEDning (Nyu-York shtati Ta'lim departamenti) quyidagi vebssaytidan olishingiz mumkin:

<http://www.nysed.gov/essa/information-parents>

## Essa axborotnomasi

Ushbu [ota-onalar uchun axborotnomasi](#) ESSA'ning yakuniy rejasini umumlashtiradi va tushuntiradi.

Axborotnomasi 15 ta tilda mavjud.

## ESSA'ning axborot videosi

Ushbu qisqa va ota-onalarga mo'ljallangan ESSA rejasini amalgalashirish to'g'risidagi [video](#) ESSAning talablari va muhim o'zgarishlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

## Nyu-York shtati tasdiqlagan ESSA rejasi

[Nyu-York shtatining ESSA rejasi](#), shuningdek, rejaning qisqacha bayonini ko'ring.

Agar maktabingiz yoki okrusingizga ushbu bildiruv talablariga rioya qilish bo'yicha yoriqnomha kerak bo'lsa yoki biror savolningiz bo'lsa, quyidagi murojaat qiling:

Nyu-York shtati Ta'lim departamenti  
(NYS Education Department)

Ikki tilli ta'lim va jahon tillari bo`limi (Office of Bilingual Education and World Languages):

718-722-2445/518-474-8775

telefon orqali

OBEWL@nysed.gov

elektron pochta orqali

yoki OBEWL vebssaytiga kiring:

<http://www.nysed.gov/bilingual-ed>.

Ota-onalar yana (800) 469-8224 telefon raqamini terib, NYSED ELL ota-onalar uchun ishonch telefoniga qo'ng'iroq qilib yoki [nysparenthotline@nyu.edu](mailto:nysparenthotline@nyu.edu) elektron pochta manzili orqali shikoyat yoki so'rov berishi mumkin.



Ko'p tillarni o'rghanuvchi/Ingliz tilini o'rghanuvchilarining ota-onalari, vasiylari va boshqa boquvchilarining quyidagi qonunda belgilab qo'yilgan huquqi: "Har bir o'quvcnining yaxshi o'q'ishi to'g'risida" (Every Student Succeeds Act, ESSA)



## Har bir o'quvcnining yaxshi o'q'ishi to'g'risida"gi qonun. . .

2015-yili qabul qilingan ushbu asosiy federal qonun o'quvcnining bolalar bog'chasidan 12-sinfgacha bo'lgan ta'lmini tartibga soladi. ESSA qonuni boshqa narsalar qatori maktab okruglaridan ota-onalar va vasiylarni o'z haq-huquqlaridan xabardor qilib turishni, Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilarning (MLLs/ELLs) ota-onalari va vasiylari quyidagi masalalarda o'z farzandlariga yordam berishda faol ishtirokchilarga aylanishi uchun axborot bilan ta'minlab turish orqali Ko'p tillarni o'rganuvchilar/Ingliz tilini o'rganuvchilarning (MLLs/ELLs) ota-onalari va vasiylariga farzandlarining ta'limida ishtirok etishiga imkoniyat yaratishni talab qiladi.

- Ingliz tilini yaxshi bilish darajasiga erishish;
- Har tomonlama rivojlangan ta'lim doirasida asosiy o'quv fanlari bo'yicha yuksak darajaga erishish va
- Shtatning barcha o'quvchilardan talab qilinadigan o'quv materiallari va fanlarni o'zlashtirish standartlariga mos bo'lish.

<sup>1</sup> MLLs/ELLs qisqartmasi federal miqyosda "English Learner"ni ("Ingliz tilini o'rganuvchi") anglatadi (ko'pincha "EL" qisqartmasi tarzida beriladi).

## ESSA yana maktab okruglaridan quyidagilarni talab qiladi . . .

MLL/ELLning ota-onalari va vasiylariga MLL/ELL ta'lim dasturlarini ishlab chiqish va baholashda yordam va fikr berishini so'rab murojaat qilish, bunga ota-onalar va vasiylarni ushbu maqsad yo'lida doimiy uchrashib turish huquqi borligidan xabardor qilish ham kiradi. Bundan tashqari, Vakil tasdiqlagan nizomga ko'ra, maktab okruglarini MLL/ELLning ota-onalar va vasiylari bilan yiliga kamida bir marta farzandlarining o'quv materiallari, shuningdek, tilni o'zlashtirishdagi olg'a siljish va ehtiyojlarni muhokama qilish uchun uchrashib turishi kerak. Bu doimiy o'tkazib turilishi rejalashtirilgan ota-onalar va o'qituvchilar konferensiyalari singari talab etiladigan majlislarga qo'shimcha ravishda o'tkaziladi.

## Bundan tashqari . . .

Nyu-York shtatida farzandingiz ilk marta MLL/ELL deb e'tirof etilayatgan paytda va undan keyin okrug ma'muriyati u o'qishga qabul qilinganidan so'ng o'n kun ichida quyidagilar haqida ma'lumot berishi shart:

- Farzandingiz qanday qilib MLL/ELL deb etirof etilgani, farzandingizning ingliz tilini qay darajada bilishi, bu qanday aniqlangani, uning o'qishni o'zlashtirish holati/olg'a siljishi;
- Farzandingizning ta'lim dasturi va boshqa mavjud muqobil dasturlarda foydalanilgan yo'riq usullari, jumladan, bunday dasturlarning materialda qay tarzda o'zarlo farqlanishi hamda ingliz va ona tilidan foydalanish yo'rig'i. Birdan oshiq dastur taklif etilayotganda, ota-onalar dastur yoki yo'riq usulini tanlash uchun yozma ko'rsatmalar olishi kerak.

Nyu-York shtatida farzandingiz MLL/ELL deb e'tirof etilganidan<sup>2</sup> so'ng ushbu ma'lumotlar ota-onalar uchun yuqori sifatlari majburiy yo'l-yo'riq seansini o'tish jarayonida taqdim etilishi mumkin.

## Maktab okrugi quyidagilar bo'yicha ma'lumot berishi shart:

- Farzandingizning ta'lim dasturi uning ta'lim olishdagi kuchli jihatlari va ehtiyojlari qanchalik mos kelishi;
- Ta'lim dasturi farzandingizga ingliz tilini o'rganishiga qanchalik alohida yordam berishi hamda sinfdan-sinfga o'tishi va maktabni bitirishida yosh standartlariga qanchalik mos kelishi;
- Ta'lim dasturini tugatishga bo'lgan muayyan talablar, jumladan, MLLs/ELLsga mo'ljallanmagan bunday dasturlardan sinflarga o'tishning kutilayotgan darajasi;
- O'rta maktab bitiruvchilarining kutilayotgan foizi, agar o'rta maktab "Title III" dasturidan mablag' olayotgan bo'lsa va bola "Individualized Education Program"da (IEP) (Individuallashtirilgan ta'lim dasturi) qatnashayotgan bo'lsa, bunday dastur bolaning IEP maqsadlariga qanchalik mos kelishi.



<sup>2</sup> Vakil tasdiqlagan nizomning 154-2.3(f)-bandida okruglardan MLL/ELL deb belgilangan o'quvchilarning ota-onalari va vasiylari uchun yuqori sifatlari yo'l-yo'riq seansini o'tish talab etiladi.